



AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINING 01/2026 - SONLI BAYONNOMASI

Manzil: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB
binosi, Toshkent sh., Shahrisabz ko‘chasi, 3-uy.

2026 yil 08 aprel
Ish vaqti: 11.00-17.00

Bank Kengashi tomonidan 2026 yil 12 martda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari hamda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ustaviga binoan, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini masofadan elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz/> orqali o‘tkazish to‘g‘risidagi 2026/04-sonli qarori qabul qilingan.

2025 yil 18 mart holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan bank aksiyadorlariga umumiy yig‘ilish o‘tkazish vaqti, joyi, kun tartibi to‘g‘risida xabar “Biznes Daily”, “Xalq so‘zi”, Korporativ axborot yagona portali, bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan hamda aksiyadorlarga evote.uz platformasi orqali xabar yuborilgan. Shu bilan birga mazkur xabar “Xalq so‘zi” respublika nashrining 2026 yil 19 martdagi 53 (9224)-sonida, “Narodnoe slovo” respublika nashrining 2026 yil 17 martdagi 51 (9168)-sonida hamda “Biznes Daily” nashrining 2026 yil 19 martdagi 22 (3320)-sonida chop etilgan.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 61-moddasi hamda Bank Kengashining qaroriga asosan umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatini tuzish sanasi 2026 yil 4 aprel deb belgilandi. Yig‘ilishda mazkur sanaga shakllantirilgan aksiyadorlar reestrida amaldagi qonunchilikka asosan faqat oddiy aksiya egalari ovoz berish huquqiga ega.

2026 yil 4 aprel holatiga Bank ustav kapitali 4.628.941.927.804 (*to‘rt trillion olti yuz yigirma sakkiz milliard to‘qqiz yuz qirq bir million to‘qqiz yuz yigirma yetti ming sakkiz yuz to‘rt so‘mni tashkil qiladi va u quyidagi aksiyalarga bo‘lingan:*

- umumiy qiymati 4.621.911.927.804 (*to‘rt trillion olti yuz yigirma bir milliard to‘qqiz yuz o‘n bir million to‘qqiz yuz yigirma yetti ming sakkiz yuz to‘rt so‘m bo‘lgan nominal qiymati 19 (o‘n to‘qqiz) so‘mlik 243.258.522.516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o‘n olti) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiya;*
- umumiy qiymati 7.030.000.000 (*etti milliard o‘ttiz million) so‘m bo‘lgan nominal qiymati 19 (o‘n to‘qqiz) so‘mlik 370.000.000 (uch yuz yetmish million) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya.*

Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining vakolatli ekanligi (kvorum mavjudligi) bo‘yicha ma‘lumot <https://evote.uz> platformasidan olindi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining reestriga ko‘ra, 2026 yil 4 aprel holatiga aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatiga jami 243 258 522 516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o‘n olti) dona oddiy aksiya egasi bo‘lgan 10 502 nafar (o‘n ming besh yuz ikki) aksiyador kiritilgan.

Aksiyadorlar ro‘yxatining to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi va aksiyadorlar nomidan umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan vakillarning vakolatlari “eVOTE” – Elektron ovoz berish xizmati tomonidan tasdiqlandi va <https://evote.uz> platformasidan olingan ma'lumotga ko‘ra, yig‘ilishda ishtirok etish uchun umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning 243 258 522 516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o‘n olti) dona yoki 95,81% foiziga egalik qiluvchi 23 (yigirma uch) nafar aksiyador va ularning vakili elektron ro‘yxatdan o‘tganligi va bank aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi vakolatli ekanligi, shuningdek 5 nafar aksiyador evote.uz platformadan ovoz berganligi ma’lum qilindi. Shu bilan birga 9 nafar bankning imtiyozli aksiyaga ega aksiyador elektron ro‘yxatdan o‘tganligi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 18 avgustdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va Tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-283-sonli qaroriga asosan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ustav kapitalidagi o‘ziga tegishli odiiy ovoz beruvchi aksiya paketlari bo‘yicha aksiyador vakolatlarini amalga oshirish va boshqarish funksiyalarini ishonchnoma asosida cheklanmagan muddatga Iqtisodiyot va moliya vazirligiga berilgan.

<https://evote.uz> platformasidan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun Bank Kengashi raisi – O.Isakov yig‘ilish raisi etib saylandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Ishchi a‘zolari quyidagi tarkibda tuzildi:

Yig‘ilish hay‘ati: O.Isakov (yig‘ilishga raislik qiluvchi).

Sanoq komissiyasi: X.Umarov.

Yig‘ilish kotibiyati: D.Abdukadirov.

Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. «O‘zsanoatqurilishbank» ATB ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash to‘g‘risida.
2. «O‘zsanoatqurilishbank» ATB Kengashi to‘g‘risida nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash to‘g‘risida.
3. «O‘zsanoatqurilishbank» ATB Boshqaruvi to‘g‘risida nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash to‘g‘risida.
4. Bank Kengashining 1 nafar a‘zosining vakolatlarini muddatidan avval tugatish to‘g‘risida.

5. Bank Kengashida bo'sh bo'lgan o'rinlarga yangi a'zolari saylash to'g'risida.

Kun tartibidagi birinchi, ikkinchi va uchinchi masalalar. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o‘zgarishlar, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (yirik aksiyador) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 25 fevraldagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-74-sonli Qarori talablariga muvofiq (Bank Ustavi, Kengashi to‘g‘risidagi nizomi, Boshqaruv to‘g‘risidagi Nizom)lariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish muxokama qilindi.

2025 yil 27 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi (O‘RQ-1097-son) Qonining 81-moddasida asosan majoritar aksiyadori va uning majburiyatlari, shuningdek Jamiyatning (Bank) kengashi va Boshqaruv a‘zolari fudutsiarlik majburiyatlari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 25 fevraldagi PQ-74-sonli Qaroriga muvofiq Korxonalarning nazorat kengashlariga Milliy investitsiya fondi ishonchli boshqaruvchisi “Franklin Templeton Asset Management” MChJ xorijiy korxonasi vakillarini kiritish va mustaqil a‘zolar sonini oshirish nazarda tutilgan.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2024-yil yakuniga qadar shakllangan taqsimlanmagan sof foydasini Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan kelishilgan holda bank ustav kapitaliga aksiyadorlar ulushlariga mutanosib ravishda yo‘naltirish belgilangan.

Yuqorida keltirilgan Qonun va Prezident qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, quyidagi ichki normativ hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgarishlar ham taqdim etildi:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Ustaviga o‘zgartirishlar;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kengashi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirishlar;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirishlar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunidagi o‘zgarishlar va qo‘shimchalar mazmuni haqida ma‘lumot taqdim etildi, ushbu o‘zgarishlar asosida bank Ustaviga bank operatsiyalarini tartibga soluvchi bandlarga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, «O‘zsanoatqurilishbank» ATB Ustavi, Kengashi to‘g‘risidagi Nizomi, Boshqaruvi to‘g‘risidagi Nizomiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash to‘g‘risidagi masalasi ovozga qo‘yildi.

Kun tartibidagi to‘rtinchi va beshinchi masalalar. “O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 63-moddasiga muvofiq, bankning yirik aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2026-yil 17-fevraldagi №08/29-3-3668-sonli xati), bankning 32 841 794 499 dona oddiy aksiyalariga egalik qilishi, shuningdek, 2025-yil 7-fevraldagi ShV-07/03-135-sonli ishonchnoma asosida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tegishli 127 152 209 296 dona oddiy aksiyalar paketini boshqaruvchi aksiyador sifatida, bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni hamda kun tartibiga bank ustaviga o‘zgartirish kiritish, ya‘ni Kuzatuv kengashi a‘zolari sonini 9 nafardan 11 nafarga oshirish, shuningdek, Kuzatuv kengashining yangi a‘zolarini saylashni taklif etgan.

Shu munosabat bilan:

- Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi Jarbolova Saida Sherizatovnaning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

- Kuzatuv kengashiga 3 nafar yangi a'zoni saylash:

1. Ansell Mettyu Jon – “Franklin Templeton Asset Management” MChJ xorijiy korxonasi vakili;
2. Hans Christoph Mangold – mustaqil a'zo;
3. Ayupova Sayyora Yakupovna – mustaqil a'zo, taklif etilgan.

Mazkur takliflar bank Kengashining 2026-yil 12-martdagi 2026/04-sonli qaroriga asosan belgilangan tartibda ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan, kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalarini ko'rib chiqib, Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi

QAROR QILDI:

1. “O'zsanoatqurilishbank” ATB ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar tasdiqlansin. *(1- ilova)*.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 585 257 ovoz

“yoqlayman”– 233 082 583 646 ovoz, “qarshiman” – 1611 ovoz, “betarafman”– yo'q.

2. “O'zsanoatqurilishbank” ATB Kengashi to'g'risida nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar tasdiqlansin. *(2- ilova)*.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 585 257 ovoz

“yoqlayman”– 233 082 583 646 ovoz, “qarshiman” – 1611 ovoz, “betarafman”– yo'q.

3. “O'zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi to'g'risida nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar tasdiqlansin. *(3- ilova)*.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 585 257 ovoz

“yoqlayman”– 233 082 583 646 ovoz, “qarshiman” – 1611 ovoz, “betarafman”– yo'q.

4. Bank Kengashining mustaqil a'zosi Djarbolova Saida Sharizatovnaning vakolatini muddatidan oldin, ya'ni 2026-yil 8-apreldan tugatilsin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 585 257 ovoz

“yoqlayman”– 233 082 583 646 ovoz, “qarshiman” – 1611 ovoz, “betarafman”– yo'q.

5. Kumulyativ ovoz berish natijalariga ko'ra, Bank Kengashida yangi bo'sh bo'lgan o'rinlarga quyidagi a'zolar saylansin:

	Saylanuvchining familiyasi, ismi va sharifi. Egallab turgan lavozimi	To'plangan ovozlar soni
1.	Matthew John Ansell , “Franklin Templeton Asset Management” XK MChJ vakili. <i>O‘zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya fondining ishonchli boshqaruvchining vakili</i>	233 082 629 838
2.	Hans Christoph Mangold , Mustaqil a'zo (yangi).	233 082 560 550
3.	Ayupova Sayyora Yakupovna , Mustaqil a'zo (yangi).	233 082 565 383

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi raisi:

O. Isakov

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kotibi

D. Abdukadirov

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Sanoq komissiyasi raisi

X. Umarov

Bayonnoma rasmiylashtirilgan sana “___” aprel 2026 yil.